

# **Oltinsoyda 32 ming xonadonning elektr ta'minotini yaxshilovchi loyiha start berildi**



Oltinsoy tumanida 110/35/10 kVt “Oltinsoy” podstantsiyasi va 19 kilometrlik 110 kVt havo tarmog'i hamda 25 000 kV lik 2 ta transformator punkti qurilishi boshlandi. Loyiha tumanda infratuzilma rivojlanishiga, 32 ming xonodon, ijtimoiy soha ob'ektlari va iqtisodiyot tarmoqlari, ishlab chiqarish korxonalarining elektr ta'minotini yaxshilashga xizmat qiladi.

Loyihaga start berish tadbirida viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishtirok etdi. Viloyat rahbari loyihani belgilangan muddatda sifatli amalga oshirish topshirig'ini berdi. Qurilish-ta'mirlash ishlari bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha mas'ullar belgilandi. Aholi farovonligiga xizmat qiluvchi loyiha boshlanishi oldidan jonliq so'yilib, ehson qilindi.

Shuningdek, shu yerning o'zida nuroniylar, mahalla faollari bilan suhbat qilinib, mahalladagi mavjud muammolar tinglandi. Ko'tarilgan masalalarni hal etish bo'yicha tuman rahbarlariga vazifalar yuklandi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)